

# Yashil

IQTISODIYOT  
TARAQQIYOT  
va

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2  
0  
2  
4



No 3

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'ssatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja  
ISSN: 2992-8982



# **Yashil** IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Bosh muharrir:**

**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**

**Bosh muharrir o'rinosari:**

**Karimov Norboy G'aniyevich**

*Elektron nashr. 796 sahifa.*

*E'lom qilishga 2024-yil 30-martda ruxsat etildi.*

**Muharrir:**

**Qurbanov Sherzod Ismatillayevich**

**Tahrir hay'ati:**

**Salimov Oqil Umrzoqovich**, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich**, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

**Rae Kvon Chung**, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

**Osman Mesten**, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari

**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri

**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich**, i.f.d., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinosari

**Axmedov Durbek Kudratillayevich**, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati

**Axmedov Sayfullo Normatovich** i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori

**Xudoqulov Sadirdin Karimovich**, i.f.d., prof., TDIU YoMMMB birinchi prorektori

**Abduraxanova Guinora Kalandarovna**, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich**, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor

**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, i.f.d., TMI professori

**Samadov Asqarjon Nishonovich**, i.f.n., TDIU professori

**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich**, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori

**Aliyev Bekdavlat Aliyevich**, f.f.d., TDIU professori

**Axmedov Ikrom Akramovich**, i.f.d. TDIU professori

**Po'latov Baxtiyor Alimovich**, t.f.d., profesor

**Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich**, i.f.d., TDIU professori

**Isakov Janabay Yakubbayevich**, i.f.d., TDIU professori

**Musyeva Shoira Azimovna**, SamDu IS instituti professori

**Axmedov Javohir Jamolovich**, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinosari

**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, t.f.f.d., TAQU katta o'qituvchisi

**Xalikov Suyun Ravshanovich**, i. f. n., TDAU dotsenti

**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, i.f.f.d., TDIU dotsenti

**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi**, i.f.f.d., TDIU dotsenti

**Rustamov Ilhomiddin**, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti

**Fayziyev Oybek Raximovich**, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti

**Sevil Piriyeva Karaman**, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti

**Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li**, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

**Uteyev Uktam Choriyevich**, O'zR Bosh prokururasi boshqarma boshlig'i o'rinosari

**Ochilov Farxod**, O'zR Bosh prokururasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i

**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, TDIU katta o'qituvchisi

**Ekspertlar kengashi:**

**Berkinov Bazarbay**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich**, i.f.d, TDIU dotsenti

**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, i.f.f.d, TDIU dotsenti

**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi**, i.f.d., TMI dotsenti

**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

**Muassis:** "Ma'rifat-print-media" MChJ

**Hamkorlarimiz:** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi,  
O'zR Bosh prokururasi huzuridagi IJQK departamenti.



# MUNDARIJA

Экологические и альтернативные заполнители для бетона в условиях Узбекистана.....	10
Акрамов Хуснитдин Ахрарович, Тохиров Жалолиддин Очилович, Самадов Хомид Самандарович	
Investitsion marketingni rivojlantirish asosida mintaqqa investitsiya jozibadorligini oshirish .....	16
Ahmedov Alim Babaniyazovich	
O'zbekistonda yashil budjetlashtirish, energiya samaradorligi va issiqxona gazlari emissiyasi.....	22
Pulatov Dilshod Haqberdiyevich, Qulliyev Ulug'bek Mirzayevich, Mamanov Alisher	
Development of the Digital Economy as a Trigger of the Economic Growth of the New Uzbekistan.....	28
Luiza Sayfullovna Makhmutkhodjaeva, Umarova Shahnoza Akbarovna	
Oliy o'quv yurtlarida matematik statistikani o'qitishning xususiyatlari.....	34
Shamsiyev Damin Najmuddinovich, Aymatova Farida Xo'razovna	
Turizmda tadbirkorlikning o'ziga xos xususiyatlari .....	37
Mardonova Dilafruz Kosimovna	
Oziq-ovqat xavfsizligi ta'minoti: O'zbekistonda mayonez importini notarif tartibga solish va ichki ishlab chiqarishni rivojlantirish istiqbollari.....	41
Muratova Shohista Nimatullayevna, Nomozov Azizbek Xayrulla o'g'li	
Mamlakatimizga xorijiy investitsiyalarni jalb etishda qimmatli qog'ozlar bozorining o'rni va roli .....	46
Akramov Azamat Ramziddinovich	
Mamlakatning iqtisodiy va ekologik rivojlanishida elektromobil sanoatini rivojlantirishning ahamiyati .....	53
Iminov Mahmudjon Azimjon o'g'li	
Hududiy eksport salohiyatini oshirishning marketing strategiyasi.....	60
Jiyamuratov Rustam Nuridinovich	
Turistik kompaniyalar moliyaviy barqarorligini baholash usullarini takomillashtirish kompaniya moliyaviy barqarorligini ta'minlashning muhim mezoni.....	65
Jo'rayev Behzod Nuraliyevich	
Iste'molchilarni xulq-atvori modellari asosida marketing strategiyalarini shakillantirish.....	70
Kutbitdinova Moxigul Inoyatovna	
Hisob siyosati va unda biologik aktivlar hisobini yoritib berish tartibini takomillashtirish .....	75
Mirzayeva Nargiza Batirovna	
Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda investitsiyalarning o'rni.....	80
Otajonova Charosxon Polvonquli qizi	
Innovatsion menejment va raqamli transformatsiyalarni joriy etishning metodologik asoslari.....	84
Quldoshev Asliddin Tursunovich	
Strategik boshqaruvida xususiy kapital samaradorligini baholash.....	89
Nasriyeva Zebiniso A'zam kizi, Mavlyanova Dilobar Maxkamovna	
Mintaqalarni innovatsion rivojlantirish istiqbollari tashkiliy tuzilmalarini takomillashtirishni boshqarish yo'llari .....	100
Xodjamuratova Gulbaxar Yuldashevna	
Meva-sabzavot eksporti barqarorligini ta'minlashning ekonometrik tahlili .....	105
Shamsiyeva Feruza Muratxodjayevna	
Zarubежный опыт активизации экономической активности домохозяйств.....	111
Бердиев Гайрат Ибрагимович, Маликова Севинч Телман кизи, Люсиков Артемий Александрович	
The Impact of Foreign Direct Investment on Economic Growth: A Case Study of Uzbekistan.....	116
Abdulla Ibragimov, Keldiyorov Shakhriyor Ilyos O'g'li	



Mintaqada sanoat ishlab chiqarish rivojlanishining kambag'allikni qisqartirishdagi ahamiyati .....	121
<b>Abdullayev Habibullo Asadulla o'g'li</b>	
Global iqtisodiyot sharoitida islom moliyasi mezon va tartiblarini joriy etishdagi muammolar va yechimlar.....	125
<b>Abduvosidova Gulandom Abdurashid qizi</b>	
Amerika Qo'shma Shtatlari tajribasida biznes subyektlarini toifalarga ajratish amaliyotining xususiyatlari .....	131
<b>Akobirova Nodira Najmiddin qizi</b>	
O'zbekiston Respublikasida qishloq xo'jaligini innovatsion rivojlanish yo'llari.....	135
<b>Axmedova Nafisa Amirkuddin qizi</b>	
Strategic directions of integration of Uzbekistan into the international hospitality industry.....	140
<b>Bekmurodova Laylo Tursunmamatovna</b>	
Surxondaryo viloyatida parrandachilikni rivojlantirish ko'rsatkichlarini prognozlash va modellashtirish.....	144
<b>Bobomuratov Imomqul Islamovich</b>	
Mamlakatimizda chorvachilik mahsulotlarini yetishtirishning hozirgi holati va uning tahlili.....	149
<b>Talipova Dilfuza Nabiyevna</b>	
Agrar soha korxonalarining moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish.....	154
<b>Erkinxojiyev Ismoiljon Ikromjon o'g'li</b>	
Analysis of the Influence of Macroeconomic Indicators on State Budget Tax Revenue .....	158
<b>Meyliev O. R., Gofurova K.</b>	
Mahalliy budjet xarajatlarini hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta'siri.....	166
<b>Hazratqulov Shahboz Boboqul o'g'li</b>	
Influence of Digital Technologies on Economic Growth of the Republic of Uzbekistan.....	170
<b>Igamberdiyeva Kunduz Ergashevna</b>	
Transmilliy kompaniyalarning tashqi bozorlar uchun marketing strategiyalari va marketing tadqiqotlarini o'tkazish amaliyoti .....	174
<b>Jo'rayeva Zilola Turobovna, Saidova Dilnozaxon Odiljon qizi</b>	
Tijorat banklari tomonidan investitsiya loyihalarini moliyalashni rivojlantirish imkoniyatlari.....	178
<b>Kamilova Iroda Xusniddinovna</b>	
Korxonalarda inqirozga qarshi moliyaviy boshqaruvi tizimini takomillashtirish .....	183
<b>Latipova Shaxnoza Maxmudovna</b>	
Tijorat banklari faoliyatida onlayn tizimlarining tutgan o'rni va ularning rivojlanishi.....	188
<b>Raxmataliyev Muzaffar Eshdavlatovich</b>	
Aholi farovonligini oshirishda tadbirkorlik faoliyatining ta'sirini baholashning nazariy asoslari .....	194
<b>Fayziyeva Dilsuz Bahodirovna</b>	
O'zbekiston Respublikasini "yashil" iqtisodiyotga o'tish samaradorligini oshirish.....	200
<b>Mirzayev Bexruz Abdulla o'g'li</b>	
Andijon viloyatida kambag'allik darajasini qisqarishiga ta'sir etuvchi ko'rsatkichlar .....	214
<b>Musaeva Ziyoda Allayarovna</b>	
O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligi eksportida marketing muammolari .....	218
<b>Musyeva Shoira Azimovna, Agzamov Avazxon Talgatovich</b>	
Respublikamizda parranda bosh sonining hozirgi holati va uning istiqbollari.....	223
<b>Akramova Nargiza Axrорovna</b>	
Menejmentda ishbilarmonlik kommunikatsiyalaridan foydalanishda optimal strategiyalarini qo'llash shart-sharoitlari.....	227
<b>Narzullayeva Gulchehra Salimovna, Shadiyeva Madina Djaloliddin qizi</b>	
Raqamlashtirish sharoitida innovatsion faoliyatning o'ziga xos xususiyatlari .....	231
<b>Nazarova Latofat Toirjon qizi</b>	
O'zbekistonda masofaviy bank xizmatlarini rivojlantirishdagi muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari.....	235
<b>Nurmuxammedov Matlab Yunusovich</b>	



Davlat aktivlarini samarali boshqarish hamda nazorat qilishni takomillashtirish.....	240
Mirzayev O., Nazarov G'ayrat Olim o'g'li	
Talabalarning oilali bo'lishiga ta'sir etuvchi omillarga iqtisodiy baholashda yangicha yondashuv.....	246
O. U. Shomurodov, Z. U. Uroqov, A. T. Ablahatov, A. A. Suyarov, J. S. Urazov	
Methodological Aspects for Branding in Private Schools.....	251
Odilova Sitora Sayfitdin qizi	
Совершенствование процедуры оценки эффективности и результативности расходов государственного сектора.....	256
Олимов Элёр Фазлиддин угули, Искандаров Суннатилло Баҳриддин угули	
Logistika xizmatlari samaradorligini oshirishda blokcheyn texnologiyalardan foydalanish .....	261
Rajabov Orzujon Mamasoliyevich	
Markaziy Osiyoda energetika bozorini rivojlantirishning kelgusi istiqboli va imkoniyatlari.....	267
Saidov Mash'al Samadovich, Umarova Irodaxon Nuraliyevna	
Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda sug'urta bozorining innovatsion usullaridan foydalanishning konseptual asoslari .....	275
Narzullayeva Gulchehra Salimovna, Saidova Dilnozaxon Odiljon qizi	
Oliy ta'lilda boshqaruva strategiyalari va ularni amalga oshirish mexanizmi.....	279
Saidqulova Firuza Farmonovna	
Jismoniy shaxslardan olinadigan daromadlarini soliqqa tortishning o'ziga xos xususiyatlari .....	283
Salimov Sherzod Baxtiyorovich	
O'zbekiston Respublikasidagi mavjud suv resurslarining iqtisodiy holati tahlili .....	288
Shanazarova Gulyora Baxtiyarovna	
Tijorat banklari kredit risklarini kamaytirish yo'llari.....	294
Tulkinova Maftuna Anvarbek qizi	
The use of Intellectual Systems in the Improvement of the Educational Process Management System in Higher Educational Institutions .....	303
Umarova Dilfuza Rakhmatilla qizi	
Oliy ta'lim tizimida yangi iqtisodiy mexanizmlarni shakllantirish.....	307
Xakimov Dilshodjon Rahmonaliyevich	
Global iqtisodiy sharoitida moliyaviy hisobotlar auditida muhimlilikni baholashni xalqaro stanadartlar asosida takomillashtirish.....	311
Xasanova Nasiba Tolliboy qizi	
Qurilish materiallari sanoatida innovatsion klasterlarni tashkil etish istiqbollari.....	314
Yuldasheva Kamola Miraliyevna	
Oliy ta'lim muassasalarida gibrildi bulut xizmat modelini qo'llash mexanizmini ishlab chiqish .....	319
Zaripov Bahodir Bobomurod o'g'li	
Роль инвестиций в системе железнодорожного транспорта в Республике Узбекистан .....	325
Акбарова Лайло Упашевна	
Gidrotexnik inshootlar betonlarini samaradorligini tahlil qilish va oshirish natijalari .....	330
Asqarov B. A., Karimov M. U., Xolmirzayev S.T., Obidjonov J. T.	
Maxsus iqtisodiy zonalar hududiga jalb etilgan investitsiyalar to'g'risida .....	334
Davlayev G'olib Ashurovich	
Yangi xizmat turi xizmatlar sohasini innovatsion boshqarishning metodologiyasi .....	337
Djurayeva Dilnoza Davron qizi	
Mintaqalar innovatsion salohiyatini baholashning uslubiy yondashuvlari.....	343
J. A. Ismatullayev, D. X. O'rino	
Milliy qayta sug'urtalovchilarning xalqaro sug'urta bozoriga kirib borishi va kutilayotgan xavf-xatarlar .....	348
Jorabayev Jasur Abduraxmanovich	



Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida tovarlar auditni natijalarini auditorlik hisobotida aks ettirish tartibi .....	354
Ibragimov M. M., Ergashev O. F.	
Turistik destinatsiyalarni tashkil etish va rivojlantirishning xorijiy tajribalari .....	358
Karimov Anvar Aktam o'g'li	
Jismoniy shaxslarning mol-mulk va yer soliqlarini hisoblash va undirish samaradorligini oshirish yo'llari.....	362
Qurbanov Muxiddin Abdullayevich	
Iqtisodiy xavfsizlikning institutsional tizimini tadqiq etishga uslubiy yondashuvlar.....	367
Mamatov Axmetjon Atajanovich, Allaberganov Zakir Gayibovich	
Davlatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning nazariy jihatlari .....	373
Mamatov Mamajan Axmadijonovich	
Paxta-to'qimachilik klasterlari eksport faoliyatini rivojlantirishning xorij tajribasi.....	380
Mansurov Saidxo'ja Kamalovich	
Korxonalar raqobatbardoshligini oshirish muammolari va dolzarb vazifalari .....	386
Musyeva Shoira Azimovna	
Устойчивый и инклюзивный рост: взаимосвязь экономического прогресса с социальным равенством и экологическим управлением .....	390
Нодирбек Холбаев	
Mintaqalarni investitsion jozibadorligini taraqqiyot strategiyasiga ta'sirini statistik baholash.....	396
Nuriddinov Zufar Akbarovich	
Финансирование каракулеводства: преодоление финансовых вызовов в пустынных регионах Узбекистана .....	402
Нуриллаев Жамолиддин Ярашевич	
O'zbekiston investitsiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirish.....	408
Oybek Elmuratov	
Intellektual mulkning iqtisodiy mazmuni va tarixiy rivojlanish bosqichlari.....	411
Maxmudova Nargiza Davlyat qizi	
Implementation and use of Digital Technologies in Logistics Abstract.....	416
Kushakova Mamura, Koshakova Mukhlisa Surat qizi	
Innovatsion iqtisodiyot tushunchasining mazmun mohiyati .....	421
Abduqaxorov Bekzod O'tkir o'g'li	
Raqamlashtirish iqtisodiy o'sish va raqobatbardoshligini oshirish omili sifatida.....	426
Mamajonova Durdonahon Mamaruzi qizi	
O'zbekistonda tashqi savdoni notarif usullar orqali tartibga solishning mamlakat iqtisodiyotiga ta'siri.....	431
Norqobilov Akobir Iso o'g'li	
Инновационные методы переработки горных отходов для экологической устойчивости в Узбекистане .....	437
Аскаров Бахтиер Аскарович, Собирова Мукаддас Хамидуллаева	
Опыт зарубежных стран по стимулированию производства сельскохозяйственной продукции и перспективы внедрения в Узбекистан.....	442
Холиков Сулаймон Уткир угли	
Xo'jalik yurituvchi subyektlarda strategik boshqaruv hisobini tashkil qilishning uslubiy jihatlari.....	447
Pardayeva Shahnoza Abdinabiyeva	
O'zbekiston Respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirishni statistik tahlili.....	452
Sayfullayev Siddik Nosirovich	
Sug'urta tashkilotining innovatsion risklarini baholash.....	457
Sattorov Shoxrux Maxmudjon o'g'li	



Kapital bozori rivojlanishining zamonaviy tendensiyalari .....	462
Turdiyeva Uzayda Omirbayevna	
Aadaptivnyi iskussstvennyi intellekt v upravlenii chelovecheskimi resursami.....	469
Xайдарова Малика Шоирджановна	
Oliy ta'lim muassasalarida moliyaviy mablag'lardan samarali foydalanishga xizmat qiluvchi zamonaviy va istiqbolga mo'ljalangan huquqiy asoslarning yaratilganligi to'g'risida.....	478
Xayriddinov Shuxrat Botirovich	
Investitsiya loyihalariiga ta'sir qiluvchi risklarni sifat jihatdan baholash usullarining o'ziga xos xususiyatlari ....	482
Shaislamova Nargiza Kabilovna	
Tijorat banklari tomonidan investitsion loyihalarni kreditlash tartib va ularni takomillashtirish yo'llari .....	491
Yunusova Ozoda Anvarjon qizi	
Hududlar iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda soliq salohiyatini oshirishning nazariy jihatlari .....	498
E. N. Raximov	
Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot tuzishning zarurligi.....	504
Avazov Ilhom Ravshanovich	
Inson resurslarini boshqarishning innovatsion usullarini joriy etish vositalarini ishlab chiqish.....	509
Djuraeva Guzal Shavkatovna	
Agrar soha korxonalarining moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish.....	513
Erkinxojiyev Ismoiljon Ikromjon o'g'li	
Korporativ qimmatli qog'ozlar asosida korxonalarни moliyalashtirishning ilg'or xorij tajribalari.....	517
Igitov Jurabek Kuzibekovich	
The impact of corporate governance on firm performance and financial stability .....	524
Muhammadyor Yunusov	
Mintaqalarda kamg'allik darajasini pasaytirish va xorij tajribasidan foydalanish yo'llari.....	537
Musulmonova Shahlo Nasriddinovna	
Makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash soliq ma'muriyatçiligin samarali tashkil etish yo'llari .....	541
Mutalova Dilorom Maxamadjanovna, Kenjaboyeva Nigina	
Iqtisodiy savodxonlik hamda tadbirkorlik qobiliyati o'rtasidagi to'g'ri nisbatdagi bog'liqlik munosabatining fundamental asoslari.....	544
Tuxtayeva Muyassar Shovkat qizi	
Korxonalarning bankrotlik riskini baholashning xalqaro modellari.....	550
Umarova Hulkar Umidulloevna	
O'zbekistonda korxona boshqaruvida kadrlar salohiyatidan foydalanish amaliyotini rivojlantirishning xorij tajribasi .....	555
Do'stova Aziza Qahramonovna	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida boshqaruv tizimining xususiyatlari.....	559
Iroda Majidova	
Ziyorat turizmini rivojlantirishning muhim xususiyatlari .....	565
Mirzayev Qulmamat Jonuzoqovich, Shukurov Tohirjon Izzatullo o'g'li	
Qandolat mahsulotlari bozorida marketing tadqiqotlarini asosiy yo'nalishlari .....	569
Tuychiyeva Vasila Faxriddin qizi	
"Зелёная экономика" как фактор повышения экономического роста страны.....	573
Тураева Адиба Икрамовна	
Oilada sarf-xarajatlar samarasiga erishishning muhimligi.....	580
Xasanov Rustam Rabimovich	
Aholi farovonlik darajasidagi farqlarni tartiblash yo'nalishlari.....	583
Xasanov Rustam Rabimovich, Turdiyev Zoxidjon Rustamovich	



Совершенствование оценки стоимости объектов недвижимости в Узбекистане на основе зарубежного опыта.....	588
Хомитов К. З., Халилова Л. Ш.	
Mamlakatimizda qishloq xo'jaligida kooperatsiya munosabatlarini rivojlantirishda xorij tajribalaridan foydalanishning ahamiyati.....	594
Choriyeva Nigina Kaxramonovna	
Davlat xaridlari tizimini takomillashtirish yo'llari .....	598
Alimbayeva Sevara Alimbayeva	
Yengil sanoatni rivojlanishida Germaniya tajribasi.....	601
F. Jumaniyazova, G'ułomov Ibroxim Rustam o'g'li	
The efficiency of usage of Islamic finance instruments in security market.....	607
Khasanov Umarbek Begmat ugli	
Tadbirkorlik subyektlari eksportini rivojlantirishda raqamli platformalardan foydalanishning xorijiy tajribalari va ulardan foydalanish yo'llari.....	613
Mamasoatoev Dilshod Ravshanovich	
O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini tashkil qilinishining hozirgi holati va muammolari .....	621
Nutfulloev Tolib G'olib o'g'li	
Mehnat bozorida raqamli texnologiyalardan foydalanish metodologiyasini takomillashtirish .....	627
Maxammadiyev M. M.	
Ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish sharoitida mahsulot tannarxini optimallashtirish asoslari.....	632
Narzullayeva Gulchehra Salimovna	
Elektron pullarni rivojlanirish yo'llari .....	636
Rustamov Maqsud Suvonqulovich, Egamberganov Mirzabek Odilbek o'g'li	
Zagryaznenie okruжающей среды в Узбекистане: проблемы, причины и пути решения .....	644
Ишонкулова Феруза Асатовна, Шукров Тимур Умидович	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida tijorat banklarini transformatsiyalash modeli orqali takomillashtirish .....	649
Norov Akmal Ruzimamatovich, Norova Nozima Nabiyevna	
Land Tax Received From Individuals and its Share in the Budget of the Republic of Uzbekistan .....	656
Hakimov Feruz Khurshid ugli	
O'zbekistonda "yashil" iqtisodiyot va iqlim o'zgarishi bilan bog'liq xarajatlar tahlili.....	659
Isaxonova Ruxshona Muzaffar qizi, Sharapova Mashxura Azadovna	
Qurilish xizmatlari ma'lumotlar tizimini takomillashtirish imkoniyatlari .....	665
Nurfayziyev Zayniddin Boymurodovich, Nurfayziyev Elyor Zayniddinovich	
Ipotekali kreditlashni rivojlanirishning xorijiy davlatlar tajribasi va uni O'zbekistonda tatbiq etish yo'llari .....	670
Turdiev Shaxriddin Erxonovich	
Suv resurslaridan foydalanishda xorij tajribalari .....	675
Berdiyev Anvar Abdivaliyevich	
Auditda yetarli va mos dalillarni to'plash tartibi .....	681
Meliyev Isroil Ismoilovich	
"Yashil" iqtisodiyot konsepsiyasining shakllanishi va rivojlanishi .....	686
Urumbayev Saparbek Samatovich	
Uy-joy fondini boshqarish samaradorligini oshirishning ustuvor yo'nalishlari .....	692
Xolmuradov Raxmatilla Ne'matillaevich	
O'zbekiston mahsulotlarining tashqi bozordagi raqobatbardoshligi xususiyatlari va onlayn platformalar .....	699
Baymuradov Shoxrux Maxmudovich	
Factors affecting investment attractiveness in the global investment landscape.....	704
Otaboev Akhmed Makhsubbek o'g'li, Juliana Juliana, Fazliddin Nasreddinov	



Xalqaro migrantsiyaning O'zbekiston mehnat bozori va inson kapitaliga ta'siri.....	709
<i>Tilabova Kumush Farhod qizi</i>	
ANALIZ I OZENKA EESTSTVENNOGO OSVEЩENIJA POMEЩENIIJ OBRAZOVATEL'NYX UCHREЖDENIJ.....	714
<i>Pirmuhamedova Shaxniza</i>	
Aktyualnye voprosy ukrpleniya doveriya naselenija k bankovskoj sisteme Respubliki Uzbekistan....	719
<i>Ruziboeva Nilufar Tulkin kizi</i>	
Metodicheskie podkhody k formirovaniyu mechanizmov strategicheskogo upravleniya razvitiem khimicheskoy otрасli.....	725
<i>Bibutova Shaхlo Sa'ydullaeva</i>	
Iqtisodiyotni rivojlantirishda erkin iqtisodiy zonalarni tashkil etishning afzalliklari va muammolari .....	730
<i>Axmedova Dilbar Buronovna</i>	
Natijaga yo'naltirilgan budjetlashtirishda sog'lijni saqlash muassasalarini moliyalashtirishning mohiyati.....	734
<i>Ishmanova Diana Nurmamadovna</i>	
Oziq-ovqat sanoatini tashkiliy-iqtisodiy jihatdan rivojlanti-rishning nazariy asoslari .....	737
<i>Muxtorova Madina Azamat qizi</i>	
Ipoteka kreditlari sohasidagi islohotlar va kelajakdagi istiqbollar .....	741
<i>A'zamxo'jayeva Nihola Sulaymon qizi</i>	
Sanoat ishlab chiqarish tizimining investitsion xususiyatlari .....	746
<i>Yodgorova Xalima To'lqinovna</i>	
Budjet ijrosini samarali ta'minlashda davlat xaridlarining ahamiyati.....	752
<i>Sholdarov Dilshod Azimiddin o'g'li, Fayzullayeva Zilola Ravshanovna</i>	
Aholi sog'ligi – milliy boylikning tarkibi va jamiat taraqqiyotining muhim shartidir.....	763
<i>Djumabayeva Shaira Xalillayevna</i>	
Moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlari: hisob siyosati.....	769
<i>Rizayev Nurbek Kodirovich, Mamatova Charos Shavkiddinovna</i>	
Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda investitsion muhitning o'rni .....	778
<i>Valiyeva Sayyora Xushbaqovna</i>	
Davlat ishtirokidagi korxonalarda korporativ ijtimoiy mas'uliyat ("Rossiya temir yo'llari" OAJ misolida).....	784
<i>Xidirova Marg'uba Rustamovna, Saidqulov Avazbek Botirqul o'g'li</i>	
Raqamli transformatsiyaning O'zbekistonning investitsion jozibadorligiga ta'siri .....	790
<i>Saitkamolov Muxammadxo'ja Sobirxo'ja o'g'li, Markabayeva Jansaya Aybek qizi</i>	



# O'ZBEKISTONDA "YASHIL" IQTISODIYOT VA IQLIM O'ZGARISHI BILAN BOG'LIQ XARAJATLAR TAHLILI



**Isaxonova Ruxshona Muzaffar qizi**  
TDIU, 2-kurs talabasi

**Sharapova Mashxura Azadovna**  
PhD, TMI, "Moliya" kafedrasи dotsenti

**Annotatsiya:** Oxirgi yillarda butun dunyo bo'ylab "yashil" budgetlashtirish, "yashil" iqtisodiyot tamoyillari ilgari surilmoqda. Maqolada respublika iqtisodiyotida yashil moliyalashtirish, yashil budgetlashtirish sohasidagi islohotlar keltirilgan hamda tadqiq qilingan. Asosan, mamlakatimiz Prezidenti Sh. Mirziyoyev tomonidan qabul qilingan qarorlar ijrosi hamda natijasi va yutimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning tahlili ko'rib chiqilgan. Bundan tashqari, maqolada davlat budgeti tarkibi va budget xarajatlari haqida ham ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** yashil budgetlashtirish, yashil moliyalashtirish, "yashil" iqtisodiyot, davlat budgeti, budget xarajatlari, iqlim o'zgarishi.

**Abstract:** In recent years, throughout the world, there has been a growing emphasis on "green" budgeting and the adoption of "green" economic principles. The article discusses initiatives and research undertaken in the realm of green financial planning and budgeting within the republic's economy. It highlights measures and analyses of reforms being implemented, particularly those decisions made by President Sh. Mirziyoyev. Additionally, information regarding the composition and expenditures of the state budget is provided.

**Key words:** green budgeting, green financing, green economy, state budget, budget expenditures, climate change.

**Аннотация:** В последние годы по всему миру наблюдается увеличение интереса к "зелёному" бюджетированию и концепциям "зелёной" экономики. В статье обсуждаются инициативы и исследования в области зелёного финансирования и бюджетирования в экономике республики. Приводятся решения и анализируются меры, принятые Президентом нашей страны Ш. Мирзиёевым, а также результаты и внедрение принимаемых мер. Кроме того, в статье приводятся сведения о составе государственного бюджета и его расходах.

**Ключевые слова:** зеленое бюджетирование, зеленое финансирование, зеленая экономика, государственный бюджет, бюджетные расходы, изменение климата.

## KIRISH

Bugungi kunda jahon mamlakatlari o'z iqtisodiyotini rivojlantirish, barqaror iqtisodiy siyosat yuritish jarayonida ko'plab yuzaga keladigan muammolarni bartaraf etish maqsadida ularga yechim izlamoqda. Xususan, hozirda global miqyosda muammoni vujudga keltirayotgan xavflarning aksariyati tabiiy ofatlar bilan bevosita bog'liqligi sir emas. Ayni vaqtda bu muammolar dunyo aholisi sonining ortishi tufayli yuzaga kelayotgan ishlab chiqarishdagi ehtiyojlarga ta'sir ko'rsatishi kuzatilmоqda. Bu vaziyat esa, albatta, tabiiy resurs hamda bioxilma-xillikkarning kamayishi, iqlim o'garishi, ijtimoiy tengsizlikning oshib ketishi hamda suv, energiya va tabiiy gazga talab oshishi kabi salbiy holatlarga olib kelmoqda. Ko'plab dunyo mamlakatlarida va yurtimizda ham "yashil" iqtisodiyotga o'tish bilan birgalikda milliy iqtisodiyotni rivojlantirish borasida chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bunda, global muammolarga yechim topish ya'ni, suvdan oqilona foydalanish va barcha hududlarga teng taqsimlash, energiyani tejash, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishda zarur va zamonaliv texnologiyalarni qo'llash, ekologik toza bo'lgan mahsulotlarni yetishtirish orqali aholi salomatligi, uning yashash tarziga ijobiy ta'sir ko'rsatish kabi masalalarni amalga oshirish asosiy maqsad sifatida belgilangan.



Dunyo hamjamiyati doimo butunjahon uchun dolzarb bo'lib kelayotgan muammolarga e'tiborini qaratadi. Yuqorida ta'kidlanganidek, sanoatning rivojlanishi, aholining ko'payishi insoniyat uchun yaratilgan texnologiyalar ijobiy baholanishi bilan birgalikda salbiy ta'sir hamda xavfli oqibatlarga olib kelishi ham mumkin. Endilikda butun yer sharini yashil hudud sifatida asrab qolish mamlakatlarning oldiga qo'yan oliv maqsadlaridan biri bo'lib qolmoqda. Bu borada O'zbekistonda ham keng ko'lamli islohotlar olib borilmoqda. Jumladan, 2022–2026-yil-larga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasi doirasida "yashil" va inkiyuziv iqtisodiy o'sishni ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish hamda iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida resurslarni tejashni yanada kengaytirish masalalari belgilab olingan<sup>[1]</sup>. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2019-2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasi tasdiqlash to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Unga ko'ra:<sup>[2]</sup>

- iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlari energiya samaradorligini oshirish;
- energiya resurslari iste'molini diversifikatsiyalash va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni rivojlantirish;
- iqlim o'zgarishi oqibatlariga moslashish va ularni yumshatish, tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish va tabiiy ekotizimlarni asrash;
- "yashil" iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlashning moliyaviy va nomoliyaviy mexanizmlarini ishlab chiqish kabi vazifalar belgilandi.

Bundan tashqari, 2023-yilning 29-sentabr sanasida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Yashil energiya sertifikatlarini joriy etilishini kengaytirish va "Yashil moliyalashtirish" mexanizmlarini takomilashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 515-sonli qaror qabul qilindi.

Yuqorida keltirilgan muammolarning yechimini topish, albatta, moliyaviy masalalar bilan bog'liq.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

"Yashil" iqtisodiyotni rivojlantirish bugungi kunda dolzarb mavzulardan bo'lganligi sababli ko'plab olimlar bu borada tadqiqotlar olib bormoqdalar. Jumladan, Suaad Hadi Hassan Al-Taai "yashil" iqtisodiyotning eng muhim maqsadlaridan biri bu "yashil" iqtisodiyotga to'sqinlik qiladigan yoki unga erishadigan siyosat va qoidalarni isloh qilish zarurati hisoblanishi haqida fikr yuritgan. "yashil" iqtisodiyotga erishish barqaror jismoniy va insoniy rivojlanishga erishish uchun aksariyat kompaniyalar tuzilmasi va strategiyalarida tub o'zgarishlarni talab qiladi deya xulosa bergen.<sup>[3]</sup>

Daniel Fiorino o'zining "Cheksiz yer yuzida yaxshi hayot: Yashil o'sishda iqtisodiy siyosat"<sup>[4]</sup> nomli kitobida atrof muhitni himoya qilishimiz shunchaki vazifa sifatida emas, balki iqtisodiyot ekologik rivojlanishsiz mavjud emasligi tufayli ekologiya va iqtisodiyotni birgalikda rivojlantirish kerakligini ta'kidlaydi. Bu orqali " "Yashil" iqtisodiyot" ning hozirgi global ekologik va iqtisodiy inqirozlar kuchaygan davrda muhimligini isbotlaydi.

Nourhane Houssam, Dalia M. Ibrahem, Sanhita Sucharita, Khadiga M. El-Aasar, Rehab R. Esilyd, Narayan Sethi o'z tadqiqotlarida, atrof-muhitni muhofaza qilish va barqaror rivojlanish bir-biriga sezilarli va ijobiy ta'sir ko'rsatishi haqida hech qanday savol tug'ilmaydi. Dunyo barqaror iqtisodiy o'sishga harakat qilar ekan, u nafaqat iqtisodiy o'sish nuqtayi nazaridan, balki ekologik nuqtayi nazaridan ham barqarorlikka erishish uchun dunyo tan olgan va atrof-muhitni faol ravishda ta'qib qilishni boshlagan ko'plab ekologik muammolarga duch kelmoqda deya ta'kidlashdi.<sup>[5]</sup>

Yi Chi, Yang Yang o'z tadqiqot ishlarida har bir mamlakatda "yashil" iqtisodiyotga o'tish jarayonida birinchi navbatda iqlim o'zgarishiga qoniqarli javob bera oladigan milliy strategiyani ishlab chiqish va amalga oshirish masalasi turganini aytishgan. Ushbu o'tish barqaror biznes modellariga ega bo'lishi, hamda ular nima moliyalashtirilishi, qanday moliyalashtirilishi, moliyaviy kapital va moliyaviy instrumentlarni faol ishlatish orqali yashil moliyani kengaytirish imkoniyatini oshirish mumkinligi va zarurligi muhim ahamiyat kasb etishi haqida xulosalarini berib o'tgan.<sup>[6]</sup>

Yevropa Komissiyasi fikriga ko'ra, "Yashil budgetlashtirish ijobiy iqlim sharoitiga erishishga yordam berish uchun budget siyosatini ishlab chiqish vositalaridan foydalanishni anglatadi" deb qisqacha ma'lumot bergen.<sup>[7]</sup>

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda ilmiy mushohada, statistik jadvallardan, qiyosiy tahlil, ma'lumotlarni guruhlash, abstrakt-mantiqiy fikrlash, induksiya va deduksiya usullaridan hamda jadvallardan foydalangan holda iqtisodiyotni muvafqaqiyatli rivojlantirish uchun ta'lim va fan o'rtaсидаги hamkorlikning ahamiyati aks ettirildi. Shuningdek, xalqaro tadqiqot va sohaga oid tashkilotlar olib borayotgan ilmiy nazariyalari o'rganilgan.



## TAHLIL VA NATIJALAR


Jahon banki tadqiqotlariga ko'ra, oxirgi bir necha yillarda O'zbekistonning jadal iqtisodiy o'sishi resurslarni qazib olish hamda iqtisodiyotning tog'-kon sanoati va ishlab chiqarish hisobiga ta'minlandi. Ammo, bu taraqqiyot salbiy ta'sir ko'rsatdi. Qazib olinadigan yoqilg'iqa asoslangan og'ir energiya balansi, energiyani ko'p talab qiluvchi sanoat sektori va barcha tarmoqlar bo'yicha past energo-samaradorlik tufayli hozirgi vaqtida mamlakat iqtisodiyoti issiqxona gazlari emissiyasi intensivligi bo'yicha dunyoda beshinchil o'rinda<sup>[8]</sup>, Yevropa va Markaziy Osiyoda esa eng oldingi o'rinda turadi.

Yaqin yillarda O'zbekistonning ko'plab hududlarida, asosan, Toshkent, eng kuchli qum bo'ronini boshdan kechirdi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston duch kelayotgan bu ekologik tahdidlarning salbiy ta'siri kuchayib borayotganining dalili sifatida ushbu voqeani "yashil" iqtisodiyotga o'tish zarurati bo'yicha muhim saboq olgani haqida ta'kidladi.

Bundan tashqari, Markaziy Osiyo mintaqasidagi muammolarning qariyb 70 foizi chuchuk suv tanqisligi bilan bog'liq ekani yaqqol ko'rinish turibdi. Jahon Resurslari Instituti ma'lumotlariga<sup>[9]</sup> ko'ra, O'zbekiston suv tanqisligi ta'siriga eng qattiq duchor bo'lgan 25 davlat qatoriga kiradi va iqlim o'zgarishi suv tanqisligini yanada kuchaytiradi.

COVID-19 pandemiysi aholining zaif qatlamlariga katta ta'sir ko'rsatdi. U ijtimoiy, sog'liqni saqlash, iqtisodiy va ekologik halokatli inqirozlarni keltirib chiqaradi, bu esa uzoq muddatli iz qoldirishi mumkin. Harorating oshishi, tez-tez qurg'oqchilik, suv tanqisligi, cho'llashish va sho'rplashish tahdidlarining kuchayishini o'z ichiga olgan iqlim o'zgarishi O'zbekistonning busiz ham qashshoq hududlaridagi hayot darajasiga nomutanosib ravishda ta'sir ko'rsatmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot Dasturi hamda Jahon banki bilan birgalikda "yashil" iqtisodiyotga o'tish doirasida 6ta ustuvor yo'nalish belgilandi:



1-rasm: "Yashil" iqtisodiyotga o'tishning ustuvor yo'nalishlari<sup>[10]</sup>

O'zbekiston butun mamlakat aholisini uzoq muddatli jarayonga jalb etgan holda iqlim o'zgarishining oqibatlariga tayyorlamoqda.

Tahlillarga ko'ra O'zbekiston iqlim o'zgarishlariga ta'sirchanligi e'tirof etilgan va shu nuqtayi nazardan bu iqlim siyosatini shakllantirish majburiyati borligini bildiradi. Iqlim o'zgarish xavfi borligi tufayli O'zbekiston 1993-yil BMTning iqlim o'zgarishi bo'yicha konvensiyasiga (BMT IO'K) qo'shilgan hamda 2017-yilda Parij bitimini imzolagan. Parij bitimi asosan karbonat angidridni kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlarni tartibga soluvchi BMTning iqlim o'zgarishi bo'yicha konvensiyasi doirasida qabul qilingan hujjat hisoblanadi.

O'zbekistonda, 2021-yilda qabul qilingan majburiyatarga muvofiq, iqlim o'garishiga qarshi chora-tadbirlarni amalga oshirish, keyingi 5 yil uchun energiya samaradorligini 20 foizga oshirish va bu orqali 2030-yilgacha issiqxona gazlari hajmini 2010-yil darajasidan 35 foizga tushirish maqsad qilingan.<sup>[11]</sup>



Iqlim masalalarini budgetni rejalashtirish va budget jarayoni bilan integratsiyalashuvini rag'batlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan BMT tarqqiyot dasturi va Fransiya taraqqiyot agentligi (FTA) ko'magida "Iqlim o'zgarishi sohasida davlat xarajatlari tahlili va institutsional baho-lash" (CPEIR) amalga oshirildi hamda iqlim bilan bog'liq xarajatlarni belgilash uslubiyoti ishlab chiqildi. Ushbu uslubiyot milliy strategik maqsadlar, budget sohasidagi tajribalar hamda tashkiliy qarorlar inobatga olingan holda ishlab chiqilgan. [12]

Iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish yuzasidan xarajatlarning ta'siriga ko'ra:

- Ijobiy ta'sirga ega;
- Salbiy ta'sirga ega;
- Ta'sir qilmaydiga xarajatlar.

Davlat budgetining 2024-yil uchun loyihasida barcha xarajatlarning 35 060,1 mlrd so'm yoki 11,2 % iqlim o'zgarishiga bog'liq deb baholandi. [12]

**1-jadval: Iqlim o'zgarishi oqibatlarini yumshatishga va moslashishga ta'sir qiluvchi davlat budgeti xarajatlarining 2022-yil ijrosi, sohalar kesimida, mlrd so'm** [13]

	Xarajatlar	Jami	Ijobiy	Salbiy	Ta'sirga ega emas
	Xarajatlar, jami	236 692,0	28 998,5	1 017,7	206 675,7
	Jami xarajatlarga nisbatan, foizda	100,0	12,3	0,4	87,3
1	Ijtimoiy xarajatlar	117 691,9	516,5	-	117 175,3
2	Iqtisodiyot xarajatları	34 090,9	17 253,3	989,8	15 847,8
3	Investitsiya xarajatları	27 807,0	10 508,6	-	17 298,4
4	Davlat boshqaruvi, hokimiyyati, adliya, prokuratura, sud va fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlarini saqlash xarajatları	13 551,7	690,3	-	12 861,4
5	Vazirlar Mahkamasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, shahar va tumanlar budgetlarining zaxira jamg'armalari	1 811,0	-	-	1 811,0
6	Davlat qarziga xizmat ko'rsatish va qoplash xarajatları	3 528,5	-	-	3 528,5
7	Boshqa xarajatlar	38 211,0	29,8	27,9	38 153,3

Keltirilgan jadvalda shuni ta'kidlaymizki, ijobiy ta'sirga ega xarajatlar 28 998,5 mlrd. so'm (12,3%), salbiy ta'sirga ega xarajatlar 1 017,7 mlrd. so'm (0.4%) va umuman ta'sirga ega bo'limgan xarajatlar esa 206 675,7 mlrd. so'mni (87,3%) tashkil etgan.

Yumshatish	Moslashish	Aralash
<ul style="list-style-type: none"> <li>• Iqlimga salbiy ta'sir qiluvchi omillarni oldini olish xarajatları           <ul style="list-style-type: none"> <li>- issiqxona gazlari chiqarilishining qisqarishiga olib keladigan chora tadbirlarni moliyalashtirishga qaratilgan</li> </ul> </li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Iqlim o'zgarishiga moslashish xarajatları iqlim o'zgarishining muqarrar oqibatları bilan bog'liq milliy iqtisodiyot va ijtimoiy sohadagi mumkin bo'lgan yo'qotishlar va zararlarni oldini olish maqsadida ularga o'z vaqtida moslashish uchun yo'naltirilgan</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Iqlim o'zgarishi oqibatlarini yumshatish va ularga moslashish xarajatları</li> </ul>

**2-rasm: Iqlim bilan bog'liq xarajatlarning xususiyatlari** [14]

Sohalar kesimida iqlim o'zgarishlariga ijobiy ta'sir xususiyatiga ega bo'lgan xarajatlarning 73 foizi qishloq va suv xo'jaligi (irrigatsiya) hamda transport sohalari hissasiga to'g'ri keladi.



Bundan tashqari, O'zbekistonda aylanma iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida ham Koreya "yashil" o'sish trast fondi (Korea Green Growth Trust Fond, KGGFT) moliyaviy ko'magida 2020-yilning mart oyidan boshlab Juhon banki tomonidan mamlakatda maqsadli Texnik Ko'mak (TK) dasturi amalga oshirilmoqda. Ushbu TK dasturi tabiatdan foydalanish samaradorligini oshirish, qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat chiqindilari hajmini kamaytirish, issiqxona gazlari chiqishi va ifloslanishni kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlarni chuqur baholash maqsadida "qishloq xo'jaligi – oziq-ovqat" ishlab chiqarish-sotish zanjiriga qaratilgan.<sup>[14]</sup>

Bundan tashqari, O'zbekistonning 2019-2030-yillarga mo'ljallangan "yashil" iqtisodiyotga o'tishni tartibga soluvchi, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va "yashil" iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish, "yashil" investitsiyalarini jalb qilish bo'yicha qator qonunlar tasdiqlandi. Shu bilan birgalikda qayta tiklanadigan energiya malaridan foydalanishni kengaytirish va resurslarni tejash, xalq xo'jaligining iqlim o'zgarishi hamda tabiiy ofat-larga qarshi tura olishini e'tiborga olgan holda Davlat budjeti xarajatlari ham shu asnoda hajmi ortib bormoqda.

## 2-jadval: 2020-2022-yillarda iqlimga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan budjet xarajatlari<sup>[15]</sup>

	2020-yil	2021-yil	2022-yil
Davlat budjeti xarajatlari, jami (mlrd. so'mda)	144 143,0	188 257,0	236 579,0
Iqlimga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan xarajatlari, jami (mlrd. so'm)	14 878,9	16 809,8	26 302,4
YAIM (milliard so'm)	602 193,0	738 425,0	888 342,0
Iqlimga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan xarajatlari (Jami budjet xarajatlariga foiz ko'rinishida)	10,3 %	8,9%	11,1%
Iqlimga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan xarajatlari (YAIM foizi ko'rinishida)	2,5%	2,3%	3,0%
Davlat budjeti xarajatlari, jami, yillar kesimida foiz ko'rinishidagi o'zgarish		130,6%	125,7%
Iqlimga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan xarajatlari, yillar kesimida foiz ko'rinishidagi o'zgarish		113,0%	156,5%

Jadvalda yaqqol ko'rinish turibdiki, iqlim o'zgarishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan budjet xarajatlari yildan yilga mutloq sonda oshgan va yillar kesimida foiz ko'rinishidagi o'zgarishlarni ko'rsatgan. Davlat budjeti umumiy xarajatlari va YALMdagi ulushi 2020-yil mos ravishda 10,3 va 2,5 foizni, 2022-yilda esa 11,1 va 3,0 foizgacha o'zgarish kuzatilgan. Ushbu ko'rsatkichlar 2022-yilda 26 302,4 milliard so'mni tashkil etgan.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Hozirgi kunda dunyo bo'ylab turli ko'rinishdagi ekologik muammolar hamda iqtisodiy inqirozlar yildan yilga ortib bormoqda. Buning natijasida, "yashil" iqtisodiyotni amalda tadbiq etishga ehtiyoj kuchaymoqda. Rivojlangan davlatlar tomonidan bunday muammolarga ko'plab olimlar o'z ilmiy-tadqiqot ishlardan yechim topish maqsadida yashil iqtisadiyot atamasi fan sifatida e'tibor qaratila boshlandi.

Mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar samarasini "yashil" iqtisodiyot sohasiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. O'zbekiston hukumati va davlat organlari tomonidan shaharlarda, shaharlar atrofi yashil hududlarni barpo etish va kengaytirishga katta e'tibor qaratilmoqda va buning uchun yetarli mablag' ajratilmoqda.

Respublikamizda mavjud ekologik muammolarni inobatga olgan holda quyidagi takliflarni berib qolaman:

- Uzoq muddatli yo'l xaritalari hamda strategiyalar ishlab chiqish;
- Parij kelishuvida belgilangan majburiyatlardan kelib chiqqan holda iqlim bo'yicha sa'y-harakatlar va issiqxona gazlari chiqishini nazorat qilish bo'yicha monitoring olib borish va hisobot berish;
- Milliy va xalqaro tashkilotlar tomonidan "yashil" o'tish va pandemiyadan keyin "yashil" tiklanish bo'yicha ishlarni muvofiqlashtirish;
- Elektromobil sanoatini kengaytirish maqsadida mahalliy va xorijiy investitsiyalarini jalb qilish;
- Iqlim o'zgarishi va atrof-muhit muammolari haqidagi axborotlarga ega bo'lishni ta'minlash maqsadida va yoshlarni iqtisodiyotning "yashil" tarmoqlarida ishlashga tayyorlash va bu sohada mubosib kadr bo'la olishi uchun maktablar va oliy o'quv yurtlarining o'quv dasturlarini takomillashtirish.
- Ob-havo ta'siri juda ko'p bo'lgan har qanday sohani nazorat qiluvchi har bir vazirlik iqlim masalalarini ko'rib chiqish va iqlim o'zgarishining ta'siriga o'z sohasi barqarorligini monitoring qilish uchun bo'lim va kadrlarga ega bo'lish;

**Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati:**

1. 2030-yilgacha O'zRning "yashil" iqtisodiyotga o'tishga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy veb-sayti. <https://president.uz/oz/lists/view/5805>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 04.10.2019 yildagi PQ-4477-son.
3. Suaad Hadi Hassan Al-Taai. Green economy and sustainable development. 2021 IOP Conf. Ser.: Earth Environ. [https://www.researchgate.net/publication/352916345\\_Green\\_economy\\_and\\_sustainable\\_development](https://www.researchgate.net/publication/352916345_Green_economy_and_sustainable_development).
4. Штайнер А., Айрис Р., Бэсса С /Навстречу "зелёной" экономике: пути к устойчивому развитию и искоренению бедности /. И др: ЮНЕП/ГридАрендаль. –2011. –С. 17.
5. Nourhane Houssam, Dalia M. Ibrahem, Sanhita Sucharita, Khadiga M. El-Aasar, Rehab R. Esily, Narayan Sethi, "Assessing the role of green economy on sustainable development in developing countries" Heliyon, Volume 9, Issue 6,2023, <https://doi.org/10.1016/j.heliyon.2023.e17306>.
6. Yi Chi, Yang Yang. Green finance and green transition by enterprises: An exploration of market-oriented governance mechanisms. Bursa Istanbul Review. Available online 20 January 2023. Green finance and green transition by enterprises: An exploration of market-oriented governance mechanisms -ScienceDirect.
7. OECD. (2021c). Green Budgeting in OECD Countries. OECD Publishing. <https://doi.org/10.1787/acf5d047-en>
8. <https://www.climatelinks.org/resources/greenhouse-gas-emissions-factsheet-uzbekistan>, Jahon resurslari instituti Iqlimni tahlil qilish ko'rsatkichlari vositasi (WRI CAIT) ma'lumotlar bazasi asosida.
9. Jahon resurslari institutining Aqueduct tools ma'lumotlariga ko'ra. <https://www.wri.org/insights/17-countries-home-one-quarter-worlds-population-face-extremely-high-water-stress>.
10. "O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi, Jahon banki, Markaziy Osiyo Mintaqaviy ekologik markazi, 2022-yil. O'zbekistonda "Yashil" O'sish va Iqlim O'zgarishi bo'yicha Siyosiy Muloqotlar Turkumi: Ishlar To'plami. Jahon banki: Washington D.C" ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 02.12.2022 yildagi PQ-436-son "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida" qarori.
12. O'zbekiston Respublikasi Ochiq budget portalı ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.
13. O'zbekiston Respublikasi Ochiq budget portalı ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.
14. O'zbekiston Respublikasi Ochiq budget portalı ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.
15. CPEIR, "Iqlim o'zgarishi sohasida davlat xarajatlari va institutsional tahlil: O'zbekiston" // BMT Taraqqiyot Dasturi (BMTTD), 2023.
16. Scientific Advisor: M. Sharapova, & Isaxonova Ruxshona. (2024). OPTIMIZATION OF SOCIAL SUPPORT EXPENDITURES WITHIN THE STATE BUDGET EXPENDITURES. Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development, 23, 25–32. Retrieved from <https://sjird.journalspark.org/index.php/sjird/article/view/923> .

# Yashi

## IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2024. № 3**

© Materiallar ko'chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnalni manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnalni 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

**Jurnalning ilmiyligi:**

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnalni

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy  
attestatsiya komissiyasi  
rayosatining  
2023-yil 1-apreldagi 336/3-  
sonli qarori bilan ro'yxatdan  
o'tkazilgan.

